

PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARIDA HARBIY SOHA BILAN BOG'LIQ ATAMALAR

Abdulkarim Raximov

JDFU magistranti,

Ilmiy rahbar: f.f.d.(PhD), dots. v.b. Maxammadiyev Xurshid

Keyingi yillarda yurtimizda tilimiz tarixini, tarixiy asarlarni, ajdodlarimiz ma'naviy merosini o'rganishga bo'lgan qiziqishning tobora ortib borayotgani va bu masalaning davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida kun taritibiga qo'yilishi "...matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, falsafa, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniy merosimizning hali o'rganilmagan ko'pgina qatlamlarini ochib berishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilayotgani" tilimiz tarixi, uning lug'aviy tarkibini bugungi kun andazalariga mos holda tadqiq etayotgan mutaxassislardan o'z faoliyatiga yanada mas'uliyat bilan yondashishni taqozo qilmoqda.

Xususan, Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asarida davlat boshqaruvi bilan bog'liq sohalarida qo'llanuvchi ko'plab kasblarga xos xususiyatlarni yoritib bergan. Asarda qo'llanilgan Cherik (sanskritcha ksatrika – qo'shin, lashkar) — 1) Turk xoqonligi, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Chingiziylar, Temuriylar, Shayboniylar, Xiva va Buxoro xonliklarida harbiy yurish vaqtida tuman, viloyat, o'lka va uluslardan oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig'iladigan muntazam qo'shin. Cherik, asosan, otliq, qisman piyoda qismlardan tashkil topgan. Cherikni belgilangan joy (miod yeri)ga to'plash vazifasi oliy bosh qo'mondon adyutanti – tavochi zimmasiga yuklatilgan. Cherik o'nlik, yuzlik, minglik va tumanlarga taqsimlangan va ularga o'nbegi, yuzbegi, mingbegi va tumanbegilar sardorlik qilgan. Buxoro xonligida nomuntazam qo'shin qora cherik deb nomlangan

Asarda qo'llanilgan yasoq so'zi ham aslida tarixiylik bo'yog'iga ega. Yasoq qonunlar majmui, jazo ma'nolarini ifodalaydi .

Harbiy atamalar yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" tarixiy romani matnida keng qo'llanilgan bo'lib, ular asarda tasvirlangan voqealarda va personajlar nutqida faolligini uchratishimiz mumkin. Bu esa asarda tasvirlangan davr muhitini yaratishda, asardagi tarixiy vaziyatni ochib berishda muhim uslibiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Quyidagi leksik birliklar fikrimizga dalil bo'la oladi.

Yog'iy – yov, raqib, dushman (12-bet)

1. Bakovul – 1) Podshoh, xon va lashkarlarga ovqat tayyorlash ustidan nazorat olib boruvchi, hukmdorga taom tortishdan oldin uni avval o'zi totib ko'ruvchi mansabdor; bosh oshpaz (Bu o'rinda shu ma'noda); 2) Oltin O'rda xonligida qo'shinga maosh ulashish, o'ljalarni taqsimlash singari vazifalarni bajaruvchi yuqori mansabdor; 3) to'ylarda taom tayyorlovchi oshpaz, pazanda; 4) to'y va bayram (hayit) munosabati bilan o'tkaziladigan kurash, poyga, uloq (ko'pkari) kabi musobaqalarni boshqaruvchi. (36-bet)

2. Qo'rchilari – 1) O'rta asrlarda Turkiston va ayrim Sharq davlatlarida: turkiy qabilalarning e'tiborli va ishonchli kishilaridan saroyda tuzilgan maxsus harbiy qism jangchisi, bular asosan hukmdorni va nufuzli a'yonlarni qo'riqlagan (bu yerda shu ma'noda); 2) Temuriylar davrida: ekinzorlarni qo'riqlovchi harbiy qism jangchisi. (39-bet)

3. Ihota (arabcha) – o'rab olish; devor, qamrab olish. Atrofni to'sish, himoya uchun o'rash, to'sish va shu maqsaddagi to'siq: himoyaning o'zi, qurshov. (40-bet)

4. Yarog'bardor – o'rta asrlarda lashkarboshining yoki ritsarning qurollarini ko'tarib yuruvchi jangchi, umuman, qurol ko'targan, qurollangan jangchi. (44-bet)

Navkar – Navkarki, boquvchi, tarbiyachi, podshohidan hurmat, izzat, e'tibor ko'rgay, bek va egasidan, xizmat ko'rsatadigan xo'jayinidan tarbiyat va mehribonchilik, marhamat, yordam, iltifot, bag'ishlash ko'rgay, unga javoban erlik va insoniyat uldurkim, oldida qulluq va xizmatkorlik, balki birgalik va sadoqatli bo'lg'ay, jonni ayamovchilik qilg'ay va tilagaykim unga jon fido etgay to shavkat-u huquqin ado etgay.

Navkar nukar (mo'g'ulcha noxor — do'st, o'rtoq) – 1) mo'g'ul xonlari, no'yon huzurida xizmat qiluvchi oliy tabaqali yigitlar. Navkarlar – qurollangan erkin kishilar bo'lib, no'yonlarga o'z ixtiyorlari bilan xizmat qilishgan va ularning qaramog'ida bo'lishgan. Urush paytida navkar, avvalambor, jangchi, tinchlik paytida esa qo'riqchi va "uy kishisi", xonadonga yaqin kishi bo'lgan. Navkarlar xizmatlari evaziga dastavval uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-yarog', keyinchalik esa harbiy o'ljaning bir qismi, in'om etilgan yer mulki va qarollar bilan taqdirlanganlar, bu esa ularni yirik zodagonlarning vassallariga aylanishlariga imkon bergan. Xizmat pillapoyasida o'z iste'dodini namoyish etgan ko'pgina navkarlar keyinchalik turli harbiy bo'linma va qismlarga qo'mondon bo'lganlar;

2) Amir Temur va temuriylar davrida navkar atamasi – "xizmatkor", "askar", "qo'shin" ma'nolarida qo'llanilgan;

3) Usmonli turk imperiyasi XIV-XVII asrlarda navkar "tanqo'riqchi, xizmatkor";

4) Safaviylar davlatida navkar – harbiy-ma'muriy mansabdorga tobe harbiy xizmatchi, askar;

5) Xiva xonligida navkar – "Lashkar"ni anglatgan;

6) Buxoro xonligida navkar xizmati uchun davlat tomonidan belgilangan maosh bilan ta'minlangan va majburiy harbiy xizmatni o'tagan. Harbiy harakatlardan bo'sh paytlarda navkar soqchilik vazifasini bajargan .

Pirimqul Qodirov tarixiy asarlarida navkar atamasini "xizmatkor", "askar", "qo'shin" ma'nolarida qo'llagan.

Xulosa qilib aytganda keltirilgan misollardagi harbiy sohaga oid terminlar asar matniga tarixiy bo'yoqlarni bera olganligi bilan ahamiyatlidir. Yuqorida keltirilgan terminlar "Yulduzli tunlar" tarixiy romanida faol qo'llanilgan bo'lib, voqealari tasvirlangan davr va ijtimoiy hayotning haqqoniy ifodasini ko'rsatishga xizmat qilgan. Yozuvchi o'sha davrga xos so'zlar, ya'ni terminlardan o'z o'rnida foydalanib, tarixiy davr, hayot haqiqatini yorqin aks ettirishga erishgan.